

**DUNYO TILSHUNOSLIGIDA O'QUV LUG'ATI TERMININING PAYDO  
BO'LISHI****Zarnigor Ubaydova Nutfulloyevna,**

Sherobod tumani 33 - umumta'lim maktabi ingliz tili o'qituvchisi

O'zbekiston, Sherobod

E-mail: rustamkhurramov@mail.ru

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada dunyo tilshunosligida o'quv lug'ati terminining paydo bo'lishi haqida gap boradi. Lug'atlar ilmiy lingvistik adabiyotlar ichida tillararo munosabatni ta'minlash, tilning grammatik qurilishini tadqiq qilish, til me'yorlarini belgilash, jamiyat a'zolarining milliy tafakkuri, nutq boyligini o'stirish, ijtimoiy-siyosiy ongni shakllantirishdagi bebafo xizmati bilan alohida ajralib turadi.

**Kalit so'zlar:** o'quv, ingliz va o'zbek tillari, lug'at, ta'lim, so'z, o'ziga xos belgi.**Kirish (Introduction)**

XX asr boshlariga kelib lug'atlar ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili e'tirof etila boshlanib, tilshunoslikda yangi lingvovidaktik yo'naliш – o'quv lug'atchiligi tarmog'i paydo bo'ldi. Natijada jahonning ilg'or davlatlarida maktab uchun maxsus lug'atlar yaratilib, ta'lim kompleksining to'laqonli a'zosiga aylantirildi.

O'quv lug'ati qanday lug'at? Bu termin tilshunoslikda qachondan paydo bo'ldi?

Ma'lumki, har qanday lug'atda nimanidir o'rgatish maqsadi yotadi. Ammo bevosita maktab uchun yaratilgan lug'atlarga o'quv lug'ati toifasiga kiritiladi va ular o'quv lug'ati parametrlariga muvofiq tuziladi. O'quv lug'ati tarixini o'rganish harakatlari Yevropa tilshunosligida ham, rus tilshunosligida ham umumiylug'atchilik masalalarini o'rganishdan ikki-uch asr keyin boshlandi. Biroq lug'atchilik tarixi bo'yicha olib borilgan izlanishlar ilk lug'at namunalarining maktab uchun yaratilganligi, barcha umumiylug'atlar maktab lug'atlarining takomillashgan ko'rinishi ekanligini tasdiqlaydi.

O'quvchini izlab topishga, mustaqil xulosalar chiqarishga yo'naltiradigan bu texnologiya zamonaviy pedagogik amaliyotda eng samarali usul deb topilgan va jahonning qator ilg'or davlatlarida XX asr boshlaridayoq ta'lim tizimiga joriy etilgan. Xususan, rus maktablari uchun 20 dan ortiq mavzuviy o'quv lug'ati yaratilib, katta tirajda ommalashtirilgan va ta'lim jarayonining tarkibiy qismiga aylantirilgan.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results)**

Shuningdek, rus tilini chet elliklarga o'rgatishda ham o'quv lug'atlaridan keng foydalanilgan. O'quv lug'atchiligining shakllanishi o'zbek tilshunosligida birmuncha keyingi davrlarga to'g'ri kelib, ancha sust kechgan. Maktab o'quvchilari uchun yaratilgan birgina «Imlo lug'ati»ni e'tiborga olmaganda, boshqa maxsus o'quv lug'atlarini uchratmaymiz. To'g'ri, o'quv lug'ati tipiga yaqin bir necha kichik lug'atlar ham yaratilgan, biroq ular o'quv lug'atlarining barcha talablariga javob bermaydi. Mazkur qo'llanmalarни ommabop cho'ntak lug'atlari sifatida baholash o'rniroq.

Umumiy o'rta ta'limda o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish, milliy o'zligini tanitish, ongida ma'naviy-ma'rifiy inqilob hosil qilish, tafakkur mahsulini yozma va og'zaki usullarda savodli bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirish vazifasi ona tili ta'limi zimmasiga yuklatiladi. Shu bois mustaqillikdan keyin ona tili ta'limi mazmuni va tadriji tubdan isloh qilinib, uning bosh maqsadi ijodiy tafakkur sohiblarini yetishtirish, har bir maktab bitiruvchisining o'z ona tilida fikrini yozma va og'zaki shakllarda savodli bayon qilish ko'nikmasini shakllantirish deb belgilandi.

Kognitiv texnologiya asosida yaratilgan ona tili darsligi bilan ishlash lug'atlarga bo'lgan talabni yanada oshirdi. Umumiy ta'limning davlat ta'lim standartida ona tili o'qitishning zaruriy vositasiga darslik bilan bir qatorda lug'atlar ham kiritildi<sup>1</sup>. Tajribalardan ma'lumki, lug'atlarning umri darslik umriga qaraganda 4-5 marta uzoq bo'ladi. Lug'at o'quvchini o'z ustida ishlashga o'rgatadi, uning doimiy hamrohi, barcha savollariga javob bera oladigan beminnat yordamchisi bo'la oladi.

O'quvchilar uchun zarur bo'lgan lug'atlar yaratilmas ekan, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, og'zaki va yozma nutqni o'stirish vositasi bo'lgan joriy darsliklar o'z vazifasini to'la bajara olmaydi.

Ta'limdagи bu yuksalishlar o'zbek tilshunosligi fani oldiga o'quv lug'atchiligining tarixiy ildizlarini aniqlash, o'zbek leksikografiyasida o'quv lug'ati tipida yaratilgan lug'atlarni aniqlash, o'quv lug'atlarining ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish, o'quv lug'atlarining tavsifiy belgilarini ajratish, o'quv lug'atlarining o'quv-metodik qurilmasini yaratish, o'quv lug'atlari yaratishning asosiy mezonlarini aniqlash, o'quv lug'atiga material tanlash masalalariga oydinlik kiritish, o'quv lug'atlarini tasniflash, jahon tilshunosligida zamонавиу лексикография yutuqlariga tayangan elektron lug'atchilik – Uznet, Uznetz, Uzscharts kabilarni yaratish tamoyillarini ishlab chiqish, o'zbek milliy o'quv lug'atchiligining navbatdagi masalalarini belgilab berish vazifalarini qo'yemoqda.

<sup>1</sup> Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot... Ta'lim taraqqiyoti. 1-maxsus son. T.: 1999. 59-b. 303 b.)

O'zbek lug'atchiligining dolzARB masalalari to'g'risida fikr yuritilar ekan, O'zbek milliy lug'atchiliGI, uning yutuqlari, muammolari va vazifalari haqida to'xtab o'tish joiz.

Lug'atchilik insoniyat hayoti, turmush-tarzi, ma'naviy madaniyati bilan u兹viy bog'liq bo'lib, albatta, unda jamiyatdagI o'zgarishlar, yangiliklar, o'z davrining rang-barang qiyofasi aks etib boradi. Lug'atlar xalqlarning, millatlarning ma'naviyati, madaniyati bilan o'zaro bog'liqdir. Lug'at insonlar tafakkurini oziqlantiruvchi, millat tafakkurini uyg'otuvchi, kishilarga milliylik hissini tarannum etuvchi manbadir.

XX asr o'zbek tilshunosligi uchun yuksalish asri bo'ldi. Ona tili darsliklarining yaratilishi, tilshunoslik nazariyasi bo'yicha taddiqotlar olib borilishi, ilmiy jurnallarning nashr etila boshlashi, ilmiy maqolalar, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarning yuzaga kelishi, filologik va entsiklopedik lug'atlarning chop etilishi o'zbek tilshunoslari tomonidan yaratilgan ulkan meros sanaladi. Yuqoridagilarning ko'pchiligi, asosan, shu davrda rus tilshunosligi zamirida yaratildi.

O'tgan yil ichida jamiyat taraqqiyoti tezlashdi. Insonlar ongi, ularning dunyoqarashi ham shunga muvofiq soddalikdan murakkablikka qarab o'zgardi. SHuningdek, insonlarning kundalik iste'moldagi so'zlari ham nutqiy rivojlanishda bo'ldi, ko'pma'nolilik kasb etdi. SHunga muvofiq zamonaviy lug'atlarga bo'lgan ehtiyoj ham kuchaydi.

XX asr boshlarida o'zbek tilining fan sifatida o'qitila boshlashi, maktablarda grammatikaning o'qitilishi o'zbek adabiy tili normasining shakllanishiga sabab bo'lgan edi. O'zbek leksikografiyasi shu davrda ham nazariy, ham amaliy ko'rinishda – yana qayta yangi bir fan sifatida shakllandi. 20-asrda o'zbek lug'atchiligi rivojiga A.Zohiri, A.Qodiriy, Ye.D.Polivanov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, S.Ibrohimov, Olim Usmon, Z.Ma'rufov, SH.T.Rahmatullaev, N.Mamatov, A.Hojiev, T.Aliqulov va boshqalar munosib hissa qo'shdilar<sup>2</sup>.

Ma'lumki, sobiq ittifoq tuzumining ayrim salbiy jihatlari keyinchalik jamiyatimiz taraqqiyotida ham o'zining salbiy oqibatlarini ko'rsata boshladи. Aytish mumkinki, millat ma'naviyatini g'orat qilish maqsadida yuritilgan siyosat sarhadlarining bir rishtasi milliy lug'atchilik rivojining to'sib qo'yilishi ham sabab bo'ldi. Turli xalq marosimlarining yo'q qilinishi, Navro'z bayrami, Ro'za hayiti, Qurbon hayiti kabi udum, an'ana va marosimlarining cheklab qo'yilishi lug'atlarni xalq milliy madaniyatidan uzib qo'yilishiga sabab bo'ldi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, o'tgan asr tilshunosligimiz borasida qilingan ishlar rus tilshunosligi bilan bevosita bog'liq. Birgina tilshunoslikning leksikografiya sohasi kuzatiladigan bo'lsa, mavjud lug'atlarning deyarli ko'pchiligi rus tili lug'atlari andazasi asosida yaratildi. Yaratilgan lug'atlar – ilm-fan taraqqiyoti, bu – ijobjiy hol. Biroq bu lug'atlarni tilimizning ontologik xususiyati, milliy xalq madaniyati asosida qayta ishlab chiqish zarur.

<sup>2</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5-том. 249-бет.

O'tgan asrning 80-yillariga kelib o'zbek lug'atchiligi borasidagi ishlar susaydi, ilm-fan yangiliklari, leksikografiya sohasidagi nazariy ishlar amaliyotga tatbiq etilmadi, zamonaviy yangi lug'at turlari yaratilmadi, tilda mavjud lug'atlar mukammallashtirilib qayta ishlanmadi, jahon leksikografiyasi yutuqlariga tayanib ish tutish, yig'ilgan tajribalarni amaliyotga tatbiq etish ishlari amalga oshirilmadi. Natijada o'zbek lug'atchiligi rus lug'atchiligi, jahon lug'atchiligidan orqaga qolib ketdi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, leksikografiyadagi keyingi davr o'zgarishlari to'xtab, bu sohada keskin o'zgarishlar shu davrdan so'ng kuchli sezilmadi.

Lug'at tuzish ishi mashaqqatli, og'ir, ko'p yillik mehnat talab etadigan soha bo'lганligi bilan bir qatorda tez o'zgaruvchan, hozirgi taraqqiyot tezlashgan jarayonda har o'n yillikda yangilanishi zarur bo'lган til fanining bir bo'limi bo'lib qoldi. O'z davri so'zlarini aks ettira oladigan har qanday lug'at ma'lum vaqtadan so'ng zamon talablariga javob bera olmay qoladi. Bu borada G'arbiy Germaniyalik tilshunos Koseriu shunday degan edi: "Lug'at rivojlanib ketayotgan leksikani quvib yeta olmaydi, shunday ekan, "zamonaviy" so'zini lug'atga nisbatan qanday qo'llash mumkin,". Koseriu keyingi nashrdan chiqadigan lug'atlardan "zamonaviy" so'zini olib tashlashni taklif etdi. Uning asosiga ko'ra, tilning rivojlanish jarayoni texnika, ishlab chiqarish yoki adabiyotning rivojlanish jarayonidan farq qiladi. Yangi so'zlar til qonuniyatiga muvofiq eskilariga tayanadi. Yangi va eski so'zlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud. Lekin shunday bog'liqlik texnikada bo'lmasligi mumkin.

Hozirga qadar tilimizda chop etilgan lug'atlar ko'zdan kechirilar ekan, ularning ko'pchiligi shu borada yaratiladigan lug'atlarga namuna tusini olib qolgan. Tilimizda o'z davrida bo'lsa ham mukammal yaratilgan lug'atlar soni kamchilikni tashkil etgan.

Istiqlol sharofati bilan jamiyatning har bir sohasida boshlangan tub islohotlar tilshunoslik fanining lug'atchilik sohasi oldiga ham ma'lum bir vazifalarni qo'ydi. Ular sirasiga quyidagi holatlarni sanab o'tish mumkin:

1. Lug'atlarning milliy madaniyatni shakllantirishdagi ahamiyatini oshirish masalasi. Ya'ni yaratiladigan lug'atlar va ularga tegishli so'zliklarda milliy an'analar, urf-odatlar, xalqimiz madaniyati, rasm-rusumlarini to'laqonli aks ettirish, milliy ruh berish masalasi ko'zda tutiladi.
2. O'quv lug'atchilagini shakllantirish masalasi.

Bugungi kun o'quvchilarning ikkinchi muallimi – repitetori, sevimli hobbisi, sevimli badiiy asari darajasidagi rolni o'quv lug'atlari egallashi lozim. Bugungi kun o'quvchisi darslikda tushunmay qolgan ma'lumotlarni ota-onasidan, bobosidan yoki yoshi ulug' kishilardan so'rab emas, o'zining sevimli do'sti – rang-barang lug'atlar majmuasi bilan ishlab o'rganishi, lug'atlar bilan do'st bo'lishi zarur. Buning uchun esa mutaxassislardan o'quvchilar talabini qondiradigan o'quv lug'atlarining majmuasini (izoh), mukammal ko'rinishlarini yaratish talab etiladi.

3. Zamonaviy filologik lug'atlar yaratish masalasi.

Bugungi kunda filologik lug'atlarning ko'pgina turlari yaratilgan. Biroq ularni mukammallashtirish, zamon ruhiga mos ravishda yangilash lozim. Masalan, o'zbek tilining imlo

lug'atini olaylik. 1929 yildan hozirgacha o'zbek tilining turli hajmli 20 dan ortiq imlo lug'ati tuzilgan<sup>3</sup>. Biroq ulardan mutaxassislar talabani qondirishi mumkin deb hisoblangan birgina 65 000 so'z va so'z shaklini qamrab olgan eng mukammal imlo lug'ati<sup>4</sup> ham bugungi kunda o'z ahamiyatini qisman yo'qotdi deyish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan 1995 yil 24 avgustda tasdiqlangan O'zbek tilining imlo qoidalari orfografik me'yordarga o'zgartirishlar kiritdi. SHundan buyon hanuz ba'zi so'zlarning to'g'ri yozilishi haqida hattoki mutaxassislar orasida ham tortishuvlar bo'lib turibdi. Bularga chek qo'yish maqsadida tilimizdagi barcha so'zlarning yozilishini muayyanlashtirish va barchaga havola etish mutaxassislarning galdeg'i kechiktirib bo'lmas vazifasi sanaladi (Masalan,

### 1-jadval

Сюжет - sujet,	Бюст – bust
Бюджет – budget	Дворян – dvoryan
Дюйм – duym (ўлчов бирлиги) ёзила,	Гравюра – gravyura
Дюжина – dujina	Бюро – byuro
Вентилятор – ventilator	Бюрократ – byurokrat
Sentyabr - sentabr	Италиян – italyan
Дублёр – dublor	Снаряд – snaryad
Изолятор – isolator	Компьютер – komputer
Изоляция – izolatsiya	
Ингалятор – ingalator	
Губерня – gubernya	
Режиссёр – rejissor	

Imlo xususida fikr yuritilganda yana bir masalani eslatib o'tish joiz. Bugungi kun matbuotda – gazeta va jurnallarda ko'pgina so'zlar o'rniga uning variantdoshlari qo'llanmoqda: andaza-andoza, buzruk-buzurg ... kabi. Tilimizda shunday paydo bo'layotgan variantdosh so'zlarning hammasini ham biri o'rnida ikkinchisini qo'llanishi to'g'ri bo'ladimi, yoki ularning yozilishini muayyanlashtirish kerakmi degan savol paydo bo'ladi. Bu holat ham imlo lug'ati masalalari doirasi o'rganilishi zarur bo'lib turibdi. [Qarshi Davlat universiteti biriksining bosh harflar asosida yozilishi masalasi, filologiya fanlari doktori professor A.Samiev birikmasining so'z birikmalari zanjiri holatida bo'lsa-da, vergul tinish belgisi bilan yozilishi orfografik me'yorga amal qilmasdan odat tusiga kirib qolish me'yoriga asoslanib qoldi.

Yangi imlo qoidalarining qabul qilinishi talaffuz va imlo masalalarini qayta kun tartibiga qo'ydi, masala mutanosib holda chuqur tahlil etilib, bir qancha so'zlarning yozilishi tilimiz tabiatiga yaqinlashtirildi.

<sup>3</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5-том. 249-бет.

<sup>4</sup> Ўзбек тилининг имло луғати –Т.,

Tilimiz xusisiyatlariga ko'ra so'zlar qator undosh bilan boshlanmaydi. Bu holat o'zlashma so'zlar orqaligina tilimizda ham paydo bo'lgan: stantsiya, kran kabi. SHuningdek, tilimizda qo'sh undosh bilan boshlanuvchi so'zlar umuman uchramasligi ham ma'lum. Biroq ruscha-baynalmilal so'z hisoblangan stsenariy so'zining yangi imlo qoidasiga ko'ra yozilishi natijasida tilimizda qo'sh undosh bilan boshlanuvchi so'z sifatida imlo lug'atiga kirgan. So'zning shunday yozilishi uning shakliy tamoyil asosida yozilishi [ital. scenario<lot. scenarius]<sup>5</sup>ga ham muvofiq kelmaydiganga o'xshaydi. Bizningcha, stsenariy so'zini qo'sh undosh bilan boshlanuvchi so'z sifatida imlo lug'atiga kiritish lozim bo'lmaydi.

Tilimizda o'zbek tilining sinonimlar lug'ati, sinonimlarning izohli lug'ati allaqachon yaratilgan<sup>6</sup>. Biroq ulardan ko'plab so'zlarning sinonimiq qatorini, ma'nodoshlarning uslubiy farqlanishini topib kuzatish imkon yo'q. SHuningdek, hozirda barcha tilshunoslar tomonidan sinonimik qatordan farqli o'laroq graduonimik qator farq qilishi barcha mutaxassislar tomonilan tan olingan<sup>7</sup>. Bu lug'atning izohsiz namunasi SH.Bobojonov va I.Islomovlar tomonidan yaratildi<sup>8</sup>. SHunga muvofiq o'zbek tilining tom ma'nodagi sinonimlar lug'atini mukammal tartibda yaratish, kengaytirish, shuningdek, til tizimidagi darajalangan so'zlarni izohli tartibda batafsil ishlab chiqish kun tartibidagi masala sifatida ko'tariladi. Xullas, shu kabi filologik lug'atlar muammolari 80-yillar lug'atchiligi davridan buyon yig'ilib qolgan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

#### 4. Entsiklopedik lug'atlar yaratish masalasi.

Hozirgi paytda turli sohalardagi entsiklopedik lug'atlarga ancha talab katta. Masalan, meditsina, o'zbek milliy taomlari, uy-ro'zg'or buyumlari kabi soha qomuslari. Birgina tibbiyot sohasidagi qomusni misol tariqasida olaylik. Bugungi kun kishilar yengil kasallik bilan og'risa, oilada bir-birini o'zaro davolashga, hatto yosh farzandlariga ham igna sanchishni o'rgatishga odatlanmoqda. SHunga muvofiq endi kishilar uchun sodda, foydalanish uchun qulay, ayni paytda zamona talabini qondira oladigan, jahon talablariga mos, sharq va g'arb tibbiyot yutuqlarini o'zida jamlagan salomatlik, tibbiyot qomuslari va shu kabilar suv va havodek zarur.

Hozirda fan-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanishi har bir sohada tez-tez ta'kidlanmoqda. Muhimi shundaki, bunday jadal taraqqiyotning yoyilishi hudud tanlayotgani yo'q. Kompyuterlashtirish tizimi mahsuli natijasida digital elektron kutubxonalar yaratish bugungi kun bozor iqtisodiyotida daromad topishning katta manbaiga aylanib qoldi. Xaridorlarning xohish va istaklariga ko'ra sanoqli kunlarda bozorbop kitoblarning nashriga tayyorlab qo'yilishi, xususan, noyob lug'atlar, turli xil ommabop entsiklopediyalarning bir vaqtning o'zida bir necha tillarda – jahon (rus, ingliz, arab) tillariga nashr etilishi va ularni omma tomonidan ham iliq kutib olinishi odat tusiga kirib qoldi. Masalan, "Eksmo Forum" nashriyoti tomonidan nashr etilayotgan noyob manbalar sirasida

<sup>5</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. З-том. 607-бет.

<sup>6</sup> Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати, 1974;

<sup>7</sup> Бозоров О., Орифжонова Ш.

<sup>8</sup> Islomov I., Bobojonov Sh. O'zbek tilining so'zlar darajalanishi o'quv lug'ati. O'quv qo'llanmasi. –T: Yangi asr avlod, 2007. 52 bet.

Vladimir Ivanovich Dalning “Illyustrirovannyyu Tolkovyyu slovaryu russkogo yazyka”<sup>9</sup>, shuningdek, Bol’shaya entsiklopediya narodnoy meditsino<sup>10</sup> kabi durdona asarlar muxlislari hanuz oshsa, oshmoqdaki, kamaygani yo’q. Jamiyatning har bir sohasi bozor iqtisodiyoti tizimi asosida ishlar ekan, davr mutaxassislarni ana shu talablarga ham tayyor bo’lishni talab etadi. Yuqoridagilarga javob tariqasida jahonga dong taratgan xalqimiz asarlarini dunyoga ko’z-ko’z qilish, joiz bo’lsa, mashhur alloma Ibn Sinoning Tib qonunlari asarini yangicha qomus ko’rinishida soddalashtirib xalqimizga tuhfa qilish, dunyoga ko’z-ko’z qilish, milliy ma’naviyatimiz, madaniyatimiz aks etgan tasavvuf allomalari qomusi, din-ma’rifat qomusi kabi ulkan qomuslarni yaratish, ularni nafaqat o’zbek tilida, balki jahon tillari bo’lgan ingliz, frantsuz, rus, ispan, arab, xitoy tillarida nashr etish galdeg'i bajarilishi zarur vazifalardandir. SHuni ham ta’kidlab o’tish lozimki, bugungi kun jahon kitob bozorini ana shunday turli zamonaviy lug’atlar, rang-barang entsiklopediyalar va bir necha ko’rinishdagi ma’lumotnomalar egallab olgan.

5. Jhon lug’atchiligi yutuqlarini o’rganish va lug’atchiligmizga tatbiq etish masalasi.

Ko’rsatilgan murakkab to’siq bugungi kunda elektron lug’atlar uchun endi chetda qoldi. Bu kabi lug’atlarni yaratish, ularning qancha keng ma’nosini bo’lsa, ularni bir vaqtning o’zida, yonma-yon o’rinda ko’rsata olish imkoniyati elektron korpusli lug’atlarda yuzaga keldi. Bugungi kunda elektron korpusli lug’at nomi bilan mashhur bo’layotgan lug’atlar birgina tilning o’zida yaratilgan bir necha izohli yoki boshqa lug’at so’zlarining barcha ma’nolarini jamlaydi, bir vaqtning o’zida o’zaro qiyoslaydi. Kuzatishlarda ularning har biridagi kamchiliklar oson ko’rina boshlaydi, biroq lug’atlarni chog’ishtirishlar asosida kamchiliklar bir-birini to’ldiradi, mukammallahashadi. SHu asosda izohli lug’atlar majmuasi, sinonim lug’atlar majmuasi, antonim lug’atlar majmuasi kabi elektron korpusli lug’atlar til tizimini to’la holatda ifodalab berishga harakat qiladi.

Yuqoridagilarga ilova sifatida shuni aytib o’tish joizki, bugunki kunda har bir ziyoli kishining personal kompyuterida shaxsiy elektron kutubxonasi bo’lishiga zarurat bor. SHaxsiy elektron kutubxona ilmiy adabiyotlar, badiiy adabiyotlar, elektron lug’atlar, gazeta va jurnallar, maqolalar, pochta xizmati kabi bo’limlardan iborat bo’lishi mumkin.

O’zbekistonda yaqin orada Wi-Fi tarmog’i ishga tushiraladigan bo’lsa, yengil internet tizimiga yo’l ochiladi. Noutbuklarning bo’lgan ehtiyoj oshib, barcha soha vakillari tilni avtomatlashtirish masalasi naqadar zarurligini, mavjud imkoniyatlardan kengroq foydalanish mumkinligini, shunday imkoniyatlardan foydalanmay ishlarni o’z joyiga qo’yib bo’lmasligini his qilishlari tabiiy.

Istiqloldan so’ng belgilangan vazifalar borasida ko’pgina nazariy va amaliy ishlar boshlab yuborilgan. Biroq yuqorida ta’kidlanganidek, mashaqqatli mehnatlar evaziga yaratiladigan lug’atlar ko’p yillik vaqtini talab etadi. SHunday og’ir zahmat hisobiga yaratilgan va

<sup>9</sup> В.И. Даль Иллюстрированный Толковый словарь русского языка. –М., Эксмо Форум. 2007. стр. 288

<sup>10</sup> Vm,h,...

yaratilayotgan besh tomdan iborat O'TIL ning yangi nashri, 12 tomdan iborat O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi yuqorida fikrimiz dalilidir.

O'TIL haqida. O'TIL qayta ishlanib, nashr etilishi bu barcha uchun quvonarli hol. O'zbek leksikasining so'z boyligi...

Biroq uning ayni paytda kirill yozuvida nashr etilishi lug'atni xalqdan, ayniqsa, yoshlardan uzib qo'yishga o'xshaydi. SHuningdek, lug'atning ba'zi so'zlariga berilgan izohlar yana qayta izohni talab etadi. Bunga misol tariqasida kompyuter so'zini izohli lug'atda berilishiga e'tibor qarataylik: "Murakkab qurilmaga ega bo'lgan elektron hisoblash mashinasi". Bu xil izoh dastlabki EHM tushunchasining ta'rifi bo'lishi mumkin. Bugungi avlod bunday izohni zamonaviy kompyuterlarga emas, shu vazifani bajaruvchi kal'kulyatorlarga nisbatan qo'llashi mumkin. SHunda ham unga "murakkab qurilmaga ega bo'lgan" emas, "elektron hisoblash mashinasi" izohi to'g'ri kelishi mumkin. Bugungi kunda fan-texnika taraqqiy etgan sari texnik jihozlar hajmi ham yengillashib boryapti. Kompyuter so'ziga berilgan O'ME izohi haqiqatga yaqin bo'lib<sup>11</sup>, shunda ham uning shakli, vazni, ko'rinishi hozirgi zamonaviy kompyuterlardan farq qiladi. Qomusning nashr etilish davri bilan hozirgi davrga qadar kompyuterlari orasida ham katta farqlar yuzaga keldi. Qisqa vaqt ichida zamonaviy minikompyuterlar (noutbuk)ning hajmi 1 kg dan kamayib ketgan bo'lsa, ularning ishlash tizimi ham o'zgarib, ikki yadroli, uch yadroli (dual-core, ...) protsessorlar ko'rinishlari savdoga chiqarildi. SHu o'rinda Germaniyalik tilshunos Koseriuning lug'atlarni rivojlanib ketayotgan leksikani quvib yeta olmasligi haqidagi fikri<sup>12</sup>, har qanday lug'at ma'lum bir vaqtidan so'ng qayta ishlanmasa, uning o'zi ham izohga ehtiyoj sezib qolishi o'rnlidir.

Hozirgi paytda zamonaviy kompyuterlarning ishlash texnologiyasi O'TIL da ko'rsatilgan hisob-kitob ishlardan ko'ra kengayib, katta va kichik hajmdagi ma'lumotlarni saqlash, grafika, excel, suratga olish, ma'lum bir masofadagi kishi bilan Webcamera orqali jonli muloqotda bo'lish kabi cheksiz turdag'i vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega bo'lgan.

### **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).**

Xulosa qilib aytganda, O'zbek lug'atchilik masalasini yana qayta ko'rib chiqish zarur, zamoviy lug'atlarni yaratish esa davr talabi, shuningdek, tilshunoslarning kechiktirib bo'lmas gal dagi vazifasidir.

Ziyonet tarmog'ida Respublika miqyosida oliy o'quv yurtlari kutubxonasi tashkil etilgan. Unda turli oliy o'quv yurtlariga doir ma'lumotlar kiritilgan. Masalan. Qarshi Davlat Universiteti O'zbek adabiyoti kafedrasining Ziyonet tarmog'idagi internet saytida foydalanish uchun qo'yilgan 10-15 (aniq hisobi) fayl ma'lumotidan 4 tasidan foydalanish mumkin, qolganlari ochib ham, o'qib ham bo'lmaydi. Aniqroq qilib aytsak, Ziyonet tarmog'idagi ko'pchilik ma'lumotlar ham shunday. Ma'lumotlarni topish qiyin, ularni Ziyonet tarmog'ida joylashtirish uchun yagona

<sup>11</sup> Узбекистон Миллий Энциклопедияси. –Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-том, 687-бет.

<sup>12</sup> Лексикография Будагов

nizom asosida ish qilinmagan. Hattoki ba'zi kishilarning tarmoqdagi ma'lumotlari o'zining familiyasi asosila nomlangan. Til va nutq so'zi qidiriladigan bo'lsa, monitorda til so'zi bilan bir qatorda Tilovov.doc paydo bo'ladi. Bu ma'lumot esa tarix, falsafa faniga tegishli bo'lishi mumkin. Bunday noqulaylik kishini ma'lumotlarni izlab topishdan zeriktirib qo'yadi. Xullas, hozircha Ziyonetga hamma topgan ma'lumotini olib kelib joylashtirish bilan ovvora. Masalan, 4 sahifadan iborat dars ma'ruzasi bir faylni band qilib turishi kishini ajablantiradi.

Hozirgi paytda Intranet asosida ish olib borishni barcha sohalarda keng yo'lga qo'yish kerak. (O'ME 4-tom, 187-bet.) Ayni paytda tilshunoslar uchun shunday ishlar olib borish zamon talabi bo'lib turibdi. Tilshunoslarning bugungi vazifalari dolzarb bo'lib, tilni avtomatlashdirish, elektron lug'atchilikni yo'lga qo'yish uchun jamoa bo'lib ishlamasa, ko'pchilik mutaxassislar bu sohaga jalg qilinmasa, davlat ahamiyatiga molik bu til muammolarini hal qilib bo'lmaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Umumiyl o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot... Ta'lim taraqqiyoti. 1-maxsus son. T.: 1999. 59-b. 303 b.)
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5- том. 249-бет.
3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5- том. 249-бет.
4. Ўзбек тилининг имло луғати –Т., Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-том. 607-бет.
5. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати, 1974; Бозоров О., Орифжонова Ш.
6. Islomov I., Bobojonov Sh. O`zbek tilining so`zlar darajalanishi o`quv lug`ati. O`quv qo'llanmasi. –Т: Yangi asr avlodi, 2007. 52 bet.
7. В.И. Даль Иллюстрированный Толковый словарь русского языка. –М., Эксмо Форум. 2007. стр. 288
8. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. –Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4- том, 687-бет.